

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida grafik organayzerlardan foydalanish

Isroilova Iroda

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti II-bosqich magistranti

Аннотация. В данной статье речь идет о том, что по окончании какого-либо раздела по родному языку для определения степени усвоения материалов определенного отрезка учебника целесообразно использовать графические органайзеры с различными заданиями. Это даст учителю в короткий срок времени определить уровень знаний всего класса и это способствует экономии времени.

Ключевые слова: графические организаторы, контрольные упражнения, индукция, дублирование, аналогия, сочетание правил, детская литература.

Ta'lim jarayoni izchil va o'ziga xos bir butun tizim bo'lib u ta'lim beruvchidan ketma-ketlikka ("osondan murakkabga" tamoyiliga) rioya qilishni talab etadi. Har qanday yangi mavzu o'tilgan avvalgi mavzularning mantiqiy davomi bo'lishi o'quvchilarga olgan bilimlariga suyangan holda yangi mavzuni sifatli o'zlashtirish imkonini beradi. O'qituvchilar, odatda, darsning kirish qismida, bob, bo'lim, chorak yoki yil yakunida o'tilgan barcha mavzularni takrorlab mustahkamlash maqsadida turli usul va metodlarni qo'llaydilar. U yoki bu mavzu chetda qolib ketmasligi uchun o'qituvchi doim ikki yoki undan ortiq qo'shimcha usullardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Aynan


mana shu jarayonda ularda o'zida barcha o'tilgan mavzularni qamrab olgan umumiy mustahkamlovchi mashg'ulot turiga ehtiyoj tug'iladi. Qaysi mavzu o'quvchilarda umumiy tarzda yaxshi o'zlashtirilmay qolganligini tekshirishda yoki yangi mavzu o'tilishi jarayonida turli qiyinchiliklarning umumiy ildizini, shuningdek, har bir o'quvchining individual yutuq va kamchiliklarini aniqlashda umumiy mustahkamlovchi nazorat mashg'ulotlari, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida biz tavsiya etmoqchi bo'layotgan grafik organayzer yuqoridagi talablarga boshqa usul va metodlardan ko'ra to'laroq javob berishi bilan ahamiyatlidir:

1-sinfda: Ajrati ko'rsatilgan so'zlarni jadvalga joylashtiring.


Yonimda **dag'al** qo'llari bilan boshlarimni silab, ko'zlarimga termilib **novcha** kampir **borardi**. (X.To'xtaboyev)

№	So'z	So'rog'i	Qanday ma'no bildiriyapti?			
			Shaxs va narsaning nomini	Shaxs va narsaning harakatini	Shaxs va narsaning belgisini	Shaxs va narsaning miqdorini
1	<i>dag'al</i>	<i>Qanday?</i>			+	
2	<i>novcha</i>	<i>Qanday?</i>			+	
3	<i>borardi</i>	<i>Nima qilardi?</i>		+		

2-sinfda:



3-sinfda:



Bunda tahlil uchun beriladigan matnlar (darslikdan tashqari) bolalar adabiyoti namularidan olinadi. Ya'ni, matn o'quvchilarga notanish bo'ladi va o'quvchilarni mashqni texnik (yoddan) emas, balki ongli bajarishga o'rgatadi. Tahlil jarayonida o'quvchilarga tahlil uchun olingan matnlarning

manbaasi (hikoya, ertak, qissa) yoki muallifi haqida o'qituvchi tomonidan qisqacha qiziqarli ma'lumotlar berilishi bolalarda badiiy asar o'qishga qiziqishni ham orttiradi. Shuningdek, tahlil uchun matnlarni o'qish darsliklaridan olib, kombinatsiyalashgan darslar tashkil etish mumkin.

